

Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**THE PLACE OF LINGUOPOETICS IN THE SYSTEM OF PHILOLOGICAL SCIENCES AND ITS INTERRELATION WITH RELATED DISCIPLINES****Dilafruz Z. Muxiddinova***Associate professor, DSc**Department of Arabic Studies**Tashkent State University of Oriental Studies*dmuhiddinova@inbox.ru*Tashkent, Uzbekistan***Arofat Tolibjonova***Oriental University**Faculty of Linguistics: Arabic Language**2nd-year Master's student*arofattolibjonova006@gmail.com*Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Linguopoetics, literary text, literary theory, literary history, literary criticism, linguistic stylistics, genre, stylistic devices.

Received: 08.05.26**Accepted:** 09.05.26**Published:** 10.05.26

Abstract: This article systematically analyzes the place of linguopoetics within the system of modern philology, the process of its formation as a scholarly discipline, as well as its interrelations with literary theory, literary history, literary criticism, and linguistic stylistics. Linguopoetics is interpreted as an integrative scientific field that serves to study the literary text in the unity of content and form, in the interaction of language and aesthetic impact. The role of genre, style, historical and cultural context, and stylistic devices in the linguopoetic analysis of a literary work is highlighted.

LINGVOPOETIKANING FILOLOGIYA TIZIMIDAGI O'RNI VA UNGA YAQIN BO'LGAN FANLAR BILAN O'ZARO MUNOSABATI**Dilafruz Z. Muxiddinova***DSc, dotsent**Arabshunoslik oliy maktabi**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*dmuhiddinova@inbox.ru*Toshkent, O'zbekiston*

Arofat Tolibjonova
Oriental Universiteti
Lingvistika (arab tili) fakulteti
2-bosqich magistranti
arofattolibjonova006@gmail.com
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Lingvopoetika, badiiy matn, adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, adabiy tanqid, lingvostilistika, janr, stilistik vositalar.

Annatatsiya: Mazkur maqolada lingvopoetikaning zamonaviy filologiya tizimidagi oʻrni, uning fan sifatida shakllanish jarayoni hamda adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, adabiy tanqid va lingvostilistika bilan oʻzaro aloqalari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Lingvopoetika badiiy matnni mazmun va shakl birligida, til va estetik taʼsir uygʻunligida oʻrganishga xizmat qiluvchi integrativ ilmiy yoʻnalish sifatida talqin etiladi. Badiiy asarni lingvopoetik tahlil qilishda janr, uslub, tarixiy-madaniy kontekst va stilistik vositalarning oʻrni yoritiladi.

МЕСТО ЛИНГВОПОЭТИКИ В СИСТЕМЕ ФИЛОЛОГИЧЕСКИХ НАУК И ЕЁ ВЗАИМОСВЯЗЬ С БЛИЗКИМИ ДИСЦИПЛИНАМИ

Дилафруз Мухиддинова
Доцент, д.ф.н.
Высшая школа арабистики
Ташкентский государственный университет востоковедения
dmuhiddinova@inbox.ru
Ташкент, Узбекистан

Арофат Толибжоновна
Университет Oriental
Факультет лингвистики: арабский язык
Магистрант 2 курса
arofattolibjonova006@gmail.com
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: лингвопоэтика, художественный текст, теория литературы, история литературы, литературная критика, лингвостилистика, жанр стилистические средства.

Аннотация: В данной статье системно анализируется место лингвопоэтики в системе современной филологии, процесс её формирования как науки, а также её взаимосвязь с теорией литературы, историей литературы, литературной критикой и лингвостилистикой. Лингвопоэтика интерпретируется как интегративное научное направление, служащее изучению художественного текста в единстве содержания и формы, во взаимосвязи языка и эстетического

воздействия. Освещается роль жанра, стиля, историко-культурного контекста и стилистических средств в лингвопоэтическом анализе художественного произведения.

Kirish. Badiiy asar tilning eng yuqori estetik imkoniyatlarini namoyon etuvchi murakkab nutq shaklidir. Badiiy matn orqali nafaqat axborot yetkazish balki obraz yaratish, hissiy ta'sir ko'rsatish va muallifning g'oyasini ifodalash vazifasi bajariladi. Bugungi kunda tilshunoslik doirasida badiiy matnni tahlil qilishga bo'lgan yondashuvlar sezilarli darajada kengaydi va murakkablashdi. Shu sababli badiiy asarni o'rganishda an'anaviy grammatik yoki semantik tahlil yetarli bo'lmay, badiiylikni yuzaga keltiruvchi estetik til vositalari, ularning shakllanishi, o'zaro aloqasini o'rganish zarurati tug'ildi. Shu jihatdan lingvopoetika filologiyaning eng istiqbolli va integrativ yo'nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Lingvopoetika badiiy asarni mazmun va shakl birligida, til va estetik ta'sir uyg'unligida tahlil qilish imkonini beruvchi ilmiy metodologiya hisoblanadi. Ushbu ilmiy soha 1960-yillarda mustaqil yo'nalish sifatida shakllana boshladi va hozirgi kunda adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, adabiy tanqid, lingvostilistika va yana bir qancha yondosh sohalar bilan yaqin aloqada rivojlanmoqda. G'arb lingvopoetik tafakkuri, ayniqsa, rus formal maktabi, struktural tilshunoslik, hamda funksional stilistika doirasida shakllandi. Biroq lingvopoetik tafakkurning shakllanishi faqat G'arb ilmiy an'analari bilan cheklanmaydi. Sharqda, xususan arab tilshunosligi tarixida badiiy nutqning estetik tabiatini o'rganishga oid qarashlar ancha erta davrlardayoq vujudga kelgan. Arab tilshunosligida balog'at ilmi tarkibidagi ma'oni, bayon, va badi' fanlari badiiy nutqning mazmun, shakl va ta'sirchanlik jihatlarini tizimli ravishda tahlil qilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Lingvopoetikaning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va farqli jihatlarini o'rganish jarayonida badiiy matn lingvistikasi hamda stilistika sohasida muhim nazariy manba hisoblangan bir qator ilmiy asarlarga tayanildi. Jumladan, V. Vinogradovning "Badiiy adabiyot tili haqida" ("О языке художественной литературы"), I. Galperinning "Matn – lingvistik tadqiqot obyekti sifatida" ("Текст как объект лингвистического исследования"). Y. Lotmanning "Badiiy matn tuzilishi" ("Структура художественного текста").

M. Yo'ldoshevning "Badiiy matn lingvopoetikasi." Lingvopoetikaning filologiyadagi o'rnini tizimli tahlil qilish va uning adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, adabiy tanqid va lingvostilistika bilan o'zaro aloqalarini ochib berish maqolaning maqsadini tashkil etadi. Adabiyot va lingvopoetika sohalari shakllanishi va o'zaro bog'liqlik jihatlarini tahlil qilishda tarixiy-qiyosiy va analitik usullar asosiy o'rin tutdi.

Natijalar. Lingvopoetikaning ilmiy mohiyatini anglash uchun filologiyaning unga eng yaqin bo'lgan yo'nalishlar bilan uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqish zarur. Bu jarayonda ushbu fanlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir umumiy va farqli jihatlar, shuningdek, ular hal etishga intiladigan asosiy masalalar alohida ahamiyat kasb etadi.

Badiiy asarda mazmun va shaklning o'zaro munosabatini izchil tahlil qilish, matning estetik jihatlarini batafsil ifodalab berish lingvopoetika oldida turgan asosiy vazifalardandir. Tilshunoslar badiiy matnni faqat g'oyaviy-mazmuniy jihatdan o'rganish bilan cheklanib qolishi mumkin emas. Shu sababdan lingvopoetika sof lingvistik yo'nalish doirasidan chiqib, filologik tahlilning mustaqil metodologiyasi sifatida shakllanadi. U badiiy asarning mazmuniy va estetik tomonini qamrab olishi bilan adabiyotshunoslikka yaqinlashadi. Til hamda mazmun birligida tadqiqot olib borishini nazarda tutadi. Shu asnda aytish joizki lingvopoetika tilshunoslik va adabiyotshunoslik o'zaro tutashgan sohadir.

Adabiyotshunoslik, odatda, badiiy asarning kelib chiqishi, mohiyati va tarixiy taraqqiyotini o'rganuvchi fan sifatida talqin etiladi. Uning tarkibida turli yo'nalishlar mavjud bo'lsa-da, lingvopoetik tahlil nuqtayi nazaridan adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi va adabiy tanqid alohida ahamiyatga molik. Adabiyotning tuzilishi va rivojlanishiga xos umumiy qonuniyatlarni adabiyot nazariyasi o'rganadi. Ya'ni badiiy adabiyot o'zi nima ekanligini aniqlaydi. Aynan shu jihat uni lingvopoetikadan farqlaydi. Shunga qaramay adabiyot nazariyasi va lingvopoetika o'rtasida o'zaro umumiy jihatlar ham mavjud. Badiiy matnni anglash va chuqur tahlil qilish jarayonida tadqiqotchidan nazariy tushunchalar majmuasidan samarali foydalanish, shuningdek, adabiy tur, janr va badiiy yo'nalishlar to'g'risida aniq ilmiy tasavvurga ega bo'lishi talab etiladi. Lingvopoetik tahlil jarayonida asarning muayyan adabiy an'ana yoki yo'nalishga mansubligini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi, chunki aynan shu omil orqali matndagi an'naviy va yangicha unsurlar nisbati hamda uning estetik qiymati baholanadi.

Ammo, adabiyotshunoslikda qo'llaniladigan barcha kategoriyalar ham lingvopoetik tahlil uchun birdek ahamiyatli emas. Shu sababli tadqiqotchi muayyan badiiy matnni lingvopoetik nuqtayi nazardan o'rganishda asosiy e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan kategoriyalarni ongli ravishda tanlab olishi zarur. Mazkur tanlov tahlil qilinayotgan matnning ichki xususiyatlariga bog'liq bo'lib, ayrim hollarda janr yetakchi omil bo'lsa, boshqa vaziyatlarda qofiya, ritm, yoki sintaktik tuzilma kabi unsurlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Natijada adabiyot nazariyasi va lingvopoetika o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ko'zga tashlanadi. Adabiyot nazariyasi lingvopoetikani na inkor etadi, na uning o'rni egallaydi, balki tahlil qilinayotgan matnning tushunchaviy va nazariy xususiyatlarini imkon qadar aniq hamda obyektiv anglashni maqsad qilgan tilshunos uchun muhim ilmiy manba vazifasini bajaradi.

Adabiyot tarixi jahon adabiyoti hamda alohida milliy adabiyotlarning shakllanish va rivojlanish jarayonlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib ularning turli davrlardagi o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi hamda muayyan yozuvchilarning ijodiy faoliyatini tarixiy izchillikda tahlil qiladi. Ushbu yo'nalish tadqiqotchini zarur bo'lgan tarixiy ma'lumotlar bilan ta'minlaydi, uning ilmiy dunyoqarashini kengaytiradi va badiiy matnni lingvopoetik jihatdan tahlil qilish uchun muhim nazariy ma'lumotlarga asos yaratadi. Shu nuqtayi nazardan lingvopoetik tahlilda "vertikal kontekst" tushunchasi ham alohida ahamiyatli. U badiiy asar tarkibiga obyektiv tarzda singdirilgan tarixiy-filologik, madaniy va ijtimoiy axborotni o'z ichiga oladi. Biroq tahlil jarayonida tarixiy-kontekstual ma'lumotlarga ortiqcha urg'u berish badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlarini ikkinchi darajaga tushurib yubormasligi lozim.

Adabiyot nazariyasi va tarixining lingvopoetika bilan o'zaro aloqalari metodologik jihatdan bir qator o'xshashliklarga ega bo'lsa, adabiy tanqid ushbu munosabatlar tizimida alohida o'rin egallaydi. Adabiy tanqidning asosiy vazifasi badiiy matn mazmunini izohlash, uning g'oyaviy-badiiy yo'nalishini aniqlash va estetik mohiyatini ochib berishdan iboratdir. Ammo adabiy-tanqidiy tadqiqotlar lingvopoetik jihatdan faqatgina matn mazmunini obyektiv tarzda yoritgan, xolis va asosli xulosalarga tayangan hollardagina ilmiy ahamiyat kasb etadi. Aksariyat holatlarda esa adabiy tanqid subyektiv talqinlar, individual qarashlar yoki muayyan nazariy pozitsiyalar ta'sirida olib boriladi, bu esa lingvopoetik tahlil uchun zarur bo'lgan aniq va barqaror ilmiy asosni ta'minlay olmaydi.

Adabiy tanqid asosan muayyan ilmiy yo'nalish yoki alohida tanqidchining individual pozitsiyasiga tayangan holda shakllanadi. Shu asnodan adabiy tanqidni adabiyot nazariyasi va tarixiga qiyos qilsak unda nisbatan kamroq aniq nazariy tushunchalar tizimi mavjudligiga guhov bo'lamiz. Natijada tadqiqot jarayonining umumiy yo'nalishi tanqidchining shaxsiy dunyoqarashi, ehtimoliy tahminlari bilan belgilanib, bu vaziyat ko'p hollarda badiiy asarning g'oyaviy-estetik mohiyatini aniqlashdan ko'ra, uni noaniqlashtirishga olib keladi.

Adabiy-tanqidiy tahlil lingvopoetik nuqtayi nazardan ilmiy ahamiyat kasb etishi uchun tadqiqotchiasossiz ravishda ijtimoiy muammolar, muallif shaxsiyati yoki axloqiy masalalarni tahlil markaziga chiqarmasligi lozim. Tadqiqot jarayonida asosiy e'tibor badiiy-estetik jihatlarga qaratilishi zarur. Bundan tashqari, badiiy matnni faqat uning alohida bir unsuri asosida talqin qilish obyektiv natijalarga olib kelmaydi. Adabiy asar tahlili majmuaviy pxarakterga ega bo'lishi, matn esa o'zining barcha tarkibiy va mazmuniy xususiyatlari uyg'unligida ko'rib chiqilishi talab etiladi. Bu tipdagi tahlil jarayonida matnning turi va xususiyatlarini ham inobatga olish muhimdir. Ayrim badiiy asarlar mazmunan nihoyatda ochiq va ravshan bo'lib, qo'shimcha izohni talab etmaydi. Bunday hollarda adabiy tanqid muallif g'oyasini qayta bayon

qilish bilan cheklanadi va uning natijalari lingvopoetik tadqiqot uchun metodologik ahamiyat kasb etmaydi.

Ayrim badiiy matnlarda muallifning g`oyaviy niyati dastlab aniq ifodalanmagan bo`lib, bu holat ularning turlicha talqin qilinishiga imkon yaratadi. Bunday vaziyatda adabiy-tanqidiy yondashuv ma`lum darajada samarali bo`lishi mumkin, biroq lingvopoetik tahlilda murakkabliklarga duch keladi. Chunki muallif tomonidan yetkazilgayotgan g`oyaviy-badiiy mazmun aniq belgilanmagan taqdirda, stilistik jihatdan ajralib turuvchi til birliklarining estetik ta`sir yaratishdagi hamda mazkur mazmuni ifodalashdagi funksiyasini ilmiy asosda tahlil qilish qiyinlashadi. Natijada lingvopoetik tahlil subyektiv xulosalarga olib kelishi xavfi ortadi.

Yana shunday badiiy matnlar mavjudki, ular yaratilgan davrda muallif tomonidan muayyan nisbatan aniq g`oyaviy talqinni nazarda tutgan bo`lsa-da, tarixiy va madaniy omillar ta`sirida bir-biriga mutlaqo zid talqinlarga sabab bo`lgan.

Bu turdagi matn bilan ishlaganda, avvalo muayyan talqinni tanlash, bu tanlovni asoslab berish undan keyingina lingvopoetik tahlilga tortish kerak.

Shundagina lingvopoetika adabiy tanqidiy tadqiqot natijalarini hisobga olishi mumkin.

Lingvopoetika va lingvostilistika haqida so`z ketganda, avvalo shuni ta`kidlash joizki, lingvopoetika lingvostilistikasiz mavjud bo`la olmaydi. Bu ikki soha o`zaro chambarchas bog`liqdir. Har ikkala soha ham til birliklarining badiiy matndagi funksional imkoniyatlarini o`rganishga qaratilgan bo`lsa-da, ularning tadqiqot obyekti, maqsadi va metodologik yondashuvlarida muayyan farqlar bor.

Lingvopoetika va lingvostilistikaning eng muhim umumiy jihati shundaki, har ikkisi ham badiiy matn tilini tahlil qilishga yo`naltirilgan. Ular til birliklarining estetik imkoniyatlarini aniqlash, badiiy ta`sirchanlikni ta`minlovchi vositalarni izohlash bilan shug`ullanadi. Har ikki yo`nalishda ham leksik, morfologik, sintaktik, va fonetik birliklar stilistik jihatdan baholanadi hamda ularning matndagi vazifasi aniqlanadi.

Bundan tashqari, har ikkisida ham badiiy matnni tizimli hodisa sifatida ko`rib chiqadi. Ya`ni, til birliklari alohida – alohida emas, balki o`zaro bogliqlikda va yaxlit struktura doirasida tahlil qilinadi. Shu bois lingvostilistik tahlil ko`pincha lingvopoetik tadqiqotlar uchun zarur bo`lgan asosli materialni taqdim etuvchi tayanch bosqich sifatida qaraladi.

Bir qancha umumiy jihatlarga qaramay albatta bu ikki yo`nalish o`rtasida muhim farqlar ham bor. Lingvostilistika, asosan, til birliklarining funksional-stilistik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan bo`lib, badiiy matndagi stilistik vositalarni tasvirlash va tavsiflash bilan shug`ullanadi. U stilistik me`yorlar, uslubiy qatlamlar va nutq turlarini tahlil qilishga alohida e`tibor beradi.

Lingvopoetika esa badiiy matnni kengroq doirada o'rganadi. Uning asosiy maqsadi til vositalarining nafaqat stilistik, balki estetik va g'oyaviy-badiiy mazmuni shakllantirishdagi rolini aniqlashdan iborat. Lingvopoetik tahlilda til birliklari, muallif maqsadi, badiiy obraz, g'oya va umumiy estetik konsepsiya bilan uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqiladi.

Lingvostilistika "qanday til vositalari qo'llangan?" degan savolga javob bersa, lingvopoetika "nega aynan shu vositalar tanlangan va ular badiiy mazmuni qanday yaratadi?" degan masalaga e'tibor qaratadi. Shu sababli lingvopoetika lingvostilistika natijalariga tayanadi, biroq ular bilan cheklanib qolmaydi.

Xulosa. Mazkur maqolada lingvopoetikaning filologiya fanlari tizimidagi o'rni va ahamiyati yoritildi hamda uning adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, adabiy tanqid va lingvostilistika bilan o'zaro aloqalari tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida lingvopoetika badiiy matnni mazmun va shakl birligida, til vositalari va estetik ta'sir uyg'unligida o'rganishga xizmat qiluvchi integrativ ilmiy yo'nalish sifatida talqin etildi. O'tkazilgan tahlillar lingvopoetik yondashuv badiiy asarni chuqur anglash, uning g'oyaviy-badiiy mohiyatini ochib berish va muallif ijodiy tafakkurini aniqlashda muhim metodologik ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Shuningdek, lingvopoetikaning boshqa filologik fanlar bilan uzviy bog'liqligi badiiy matn tadqiqotida kompleks va tizimli yondashuv zarurligini tasdiqladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Vinogradov, V. V. (1980). O yazyke khudozhestvennoy literatury. Nauka. (in Russian)
2. Galperin, I. R. (1981). Tekst kak ob"yekt lingvisticheskogo issledovaniya. Nauka. (in Russian)
3. Lotman, Y. M. (1970). Struktura khudozhestvennogo teksta. Iskusstvo. (in Russian)
4. Polyakova, E. V. (2014). Stilisticheskie i lingvopoeticheskie osobennosti rasskazov G. Kh. Manro (Candidate's thesis). (in Russian)
5. Yo'ldoshev, M. (2008). Badiiy matn lingvopoetikasi. Fan. (in Uzbek)
6. Khaybullin, I. N. (2008). Stilistika arabskogo yazyka. SAD. (in Russian)